



## XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 24 - iyul

VI-58-63-11-154-K/23

Buvayda tuman hokimligi

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son qarorining 5-bandi tumanda ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023 yil 31 yanvardagi PQ-39-son qarorini 5-bandida tuman (shahar) hokimlarining birinchi o‘rinbosarlari, tuman (shahar) oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazlari bilan birgalikda dasturlar ijrosini, shu jumladan ajratilgan kreditlar samaradorligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida har chorak yakuni bo‘yicha Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarida hisobot berib borishi amaliyoti joriy etilishi belgilangan.

Mazkur qaror ijrosi yuzasidan tumanda 2023-yilning yanvar-iyun oylari davomida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelindi. Jumladan hokim yordamchilari tomonidan berilgan tavsiyanomalarga asosan tijorat banklari tomonidan tumanda **1 516 nafar** fuqarolarga **28,1 mlrd.so‘m** imtiyozli kreditlar ajratilgan. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari D.Mirzahalilovning Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashiga taqdim etgan ”Tuman hududida dasturlar ijrosini, shu jumladan ajratilgan kreditlar samaradorligini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida”gi hisobotini va sessiyada deputatlar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunining 6- va 24- bandlariga muvofiq Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

**1.** Buvayda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari D.Mirzahalilovning 2023-yilning yanvar-iyun oylari davomida “dasturlar ijrosini, shu jumladan ajratilgan kreditlar samaradorligini ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida”gi xisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son qarori ijrosi bo‘yicha tumanda joriy yilning yanvar-iyun oylari davomida **1 516 nafar** fuqarolarga **28,1 mlrd.so‘m** jumladan:

- AT “Xalq banki” tomonidan **748 ta** kredit hujjatlariga **15,5 mlrd.so‘m**;

- “Agrobank” ATB tomonidan **768 ta** kredit hujjatlariga **12,6 mlrd.so‘m** imtiyozli kreditlar ajratib berilganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Mirzahalilovga, hokim yordamchilari tomonidan tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan va imtiyozli kredit olgan **1 516 nafar** fuqarolardan tashqari **1 316 nafar** fuqarolarga tavsiyanomalar berilgan bo‘lsada, lekin shu kunga qadar ularga har xil sabablarga ko‘ra imtiyozli kreditlar ajratilmaganligini inobatga olib, ushbu fuqarolarga imtiyozli kreditlar ajratib berilishiga tusqinlik qilayotgan har qanday muammolarga barham berish va aybdorlarga nisbatan tegishli choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Mirzahalilov), “Agrobank” ATB tuman filiali (O.Xolmatov), AT “Xalq banki” tuman filiali (U.Xatamov), tumanda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida fuqarolarga ajratilishi lozim bo‘lgan imtiyozli kreditlarni ajratish davomida sababsiz muddatlarni cho‘zish va boshqa salbiy holatlarni sun‘iy ravishda yuzaga keltiruvchi mas‘ullarga nisbatan keskin choralar ko‘rsin.

5. Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (E.Tursunov) ga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi PQ-39-son qarori ijrosini tumanda ta‘minlashda joylardagi hokim yordamchilarini shaxsiy mas‘uliyatini oshirishga qaratilgan choralarni ko‘rsin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Shokirov)ga tumanda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni tuman hokimligi rasmiy veb sahifalarida va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini ta‘minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Mirzahalilov), nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi (X.Akbarov) zimmalariga yuklatilsin.

**Tuman hokimi**



**Odiljonovich I. B.**